

KORPORATSIYALARNING VALYUTA RISKLARINI BOSHQARISHDA DERIVATIV VOSITALARDAN FOYDALANISH

Nurmatov Azizbek Oltiboy o'g'li

Shaymardanov Samandar Qahramon o'g'li

Termiz Davlat Universiteti

Moliya va moliyaviy texnologiyalar

3-bosqich talabasi

E-mail: adamatr13@gmail.com

Shaymardonovsamandar23@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur tezisda korporatsiyalarning valyuta risklarini boshqarishda derivativ moliyaviy vositalardan foydalanish mexanizmlari tahlil qilinadi. Globalizatsiya sharoitida valyuta kurslarining yuqori darajadagi o'zgaruvchanligi korporatsiyalar moliyaviy barqarorligiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Tadqiqotning maqsadi valyuta riskining iqtisodiy mohiyatini ochib berish hamda forward, futures, opsion va svop kabi derivativ instrumentlarning risklarni minimallashtirishdagi rolini baholashdan iborat. Tadqiqot jarayonida valyuta riskining asosiy turlari (transaksion, translatsion va iqtisodiy risk) o'rganildi hamda ularni hedging strategiyalari orqali kamaytirish imkoniyatlari asoslab berildi. Tadqiqot natijalari derivativ vositalardan oqilona foydalanish korporatsiyalarning pul oqimini barqarorlashtirish, moliyaviy yo'qotishlarni kamaytirish va kompaniya qiymatini saqlab qolishda muhim omil ekanligini ko'rsatdi.

Kalit so'zlar: valyuta riski, investitsiya, korporatsiya, forwards, futures, svop, opsion,

Zamonaviy global iqtisodiyot sharoitida korporatsiyalar faoliyati xalqaro moliyaviy bozorlar bilan chambarchas bog'liq holda rivojlanmoqda. Xalqaro savdo hajmining ortishi, kapital harakatining erkinlashuvi hamda valyuta kurslarining yuqori darajadagi o'zgaruvchanligi korporatsiyalar uchun qo'shimcha

moliyaviy risklarni yuzaga keltirmoqda. Ayniqsa, eksport-import operatsiyalarini amalga oshiruvchi hamda xorijiy investitsiyalar bilan ishlovchi kompaniyalar valyuta riskiga bevosita duch keladi.

Valyuta kursining kutilmagan tebranishlari kompaniyaning daromadlari, xarajatlari va sof foydasiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bu esa moliyaviy barqarorlikka tahdid tug'diradi hamda uzoq muddatli strategik rejalashtirish jarayonini murakkablashtiradi. Shu sababli korporatsiyalar valyuta risklarini samarali boshqarish mexanizmlarini joriy etishga intilmoqda.

Mazkur sharoitda derivativ moliyaviy vositalar, xususan forward, futures, opsiya va svop shartnomalari valyuta risklarini minimallashtirishning muhim instrumentlari sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu tadqiqotning maqsadi korporatsiyalarning valyuta risklarini boshqarishda derivativ vositalarning iqtisodiy mohiyatini hamda amaliy ahamiyatini tahlil qilishdan iborat.

Derivativlar - bu qiymati boshqa bir aktivga (valyuta, foiz stavkasi, tovar, aksiya va h.k.) bog'liq bo'lgan moliyaviy shartnomalardir. Ya'ni, derivativning narxi o'zi mustaqil shakllanmaydi u boshqa aktiv narxiga qarab o'zgaradi. Misol uchun, agar kompaniya 3 oy ichida dollar kursi oshib ketishidan qo'rqsa, u hozirdan kelajakdagi kurs bo'yicha shartnoma tuzadi. Shu shartnoma - derivativ hisoblanadi. U kurs o'zgarishidan keladigan zararni kamaytirish uchun ishlatiladi, buni xedj qilish deb ham atash mumkin. Eng keng tarqalgan derivativ turlari sifatida Forward, ya'ni kelajakda ma'lum narxda sotib olish yoki sotish kelishuvi. Futures ham shunaqa faqat u birjada savdo qilinadigan standart shartnoma hisoblanadi. Eng xavf kam turlaridan biri Svop ya'ni o'zgaruvchan foizni qat'iy foizga almashtirish deyish mumkin. Va albatta, opsiya - bu kelajakda sotib olish yoki sotish huquqi. Bu majburiyat emas. Bu shartnomalar bugungi kunda risklarni kamaytirishda, xususan, valyuta riskini xedjerlashda keng foydalanib kelinmoqda.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, ro'yxatga olingan korxonalarining qariyb 48 foizi moliyaviy risklarni boshqarish maqsadida derivativ moliyaviy vositalardan foydalanadi. Eng ko'p xedj qilinadigan risk turi bu - valyuta (foreign exchange) riski bo'lib, firmalarning 43 foizi undan himoyalangani. Shuningdek, 32 foiz

korxonalar foiz stavkasi riskini boshqaradi. Tovar narxi riski (9%) va aksiyalarning narx o'zgarishi riski (2%) esa nisbatan kamroq xedj qilinadi.

Moliyaviy derivativ vositalar ichida eng keng tarqalgan turi - forward shartnomalari (41%), undan keyin esa foiz stavkasi svoplari (32%) hisoblanadi. Fyuchers shartnomalaridan 12 foiz, opsiyonlardan esa 6 foiz korxonalar foydalanadi. Odatda forward va fyuchers shartnomalari valyuta riskini boshqarishda, svoplar foiz stavkasi riskini kamaytirishda, forward va opsiyonlar esa tovar narxi riskini xedj qilishda qo'llaniladi. Umuman olganda, Osiyodagi ro'yxatga olingan korxonalar orasida derivativ vositalardan foydalanish keng tarqalgan bo'lib, ko'plab firmalar turli xil risklarni samarali boshqarish uchun bir nechta derivativ instrumentlarni birgalikda qo'llaydi.

1-jadval

Risk turi	Ulushi
Chet el valyuta riski	43%
Foiz stavkasi riski	32%
Tovar narxi riski	9%
Aksiya narxlari o'zgarish riski	2%

1-jadval. Xedj qilinadigan moliyaviy risklar turi

Ushbu jadval ma'lum bir moliyaviy risklarni xedj qilish maqsadida moliyaviy derivativlardan foydalanadigan korxonalarning o'rtacha foiz ko'rsatkichini aks ettiradi. Tadqiqot davomida 2007–2014 yillar oralig'ida Gonkong, Indoneziya, Koreya, Filippin, Tayvan, Tailand, Malayziya va Singapurda faoliyat yuritgan 520 ta birjada ro'yxatga olingan sanoat korxonalarini qamrab oladi. Korxonalar yillik hisobotlarida derivativ vositalardan foydalanish to'g'risidagi ma'lumotlarga asosanib, ular “foydalanuvchi” va “foydalanmaydigan” guruhlariga ajratildi. Umumiy namuna bo'yicha tahlil natijalariga ko'ra, ro'yxatga olingan korxonalarning 48 foizi moliyaviy risklarni boshqarish maqsadida derivativ vositalardan foydalanadi.

2-jadval

Moliyaviy derivativ turi	O'rtacha ulushi
Forward shartnomalari	41%
Futures shartnomalari	12%
Svoplar	32%
Opsionlar	6%

**2-jadval. Osiyodagi birjada ro'yxatga olingan korxonalar tomonidan
qo'llaniladigan moliyaviy derivativ vositalar**

Ushbu jadval turli xil moliyaviy derivativ vositalardan foydalanishning o'rtacha foiz ko'rsatkichlarini ifodalaydi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, valyuta kurslarining o'zgaruvchanligi korporatsiyalar moliyaviy barqarorligiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Derivativ moliyaviy instrumentlar valyuta risklarini hedging qilish orqali kutilmagan moliyaviy yo'qotishlarni kamaytirish imkonini beradi. Shu bilan birga, derivativ instrumentlardan foydalanish malakali risk-menejment tizimini va chuqur moliyaviy tahlilni talab etadi. Oqilona va strategik yondashuv asosida qo'llanilgan derivativ vositalar korporatsiyalarning moliyaviy barqarorligini mustahkamlash va kompaniya qiymatini saqlab qolishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Kin-Wai Lee, maqola International journal of business 24(2), 2019 114-131 betlar.
2. Shadimetova Z. Valyuta riskini baholash va boshqarishni takomillashtirish //education and research in the era of digital transformation. – 2025. – T. 1. – №. 1. – C. 78-81.
3. Karimov Akramjon, maqola Scientific Journal of “International Finance & Accounting” Issue 6, December 2023.